

**SUN'YI INTELLEKTGA EGA TEXNOLOGIYALARNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHGA YONDASHUVLAR OLIMLAR NIGOHIDA**

Sarvar Saidov Faxriddin o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yurisprudensiya fakulteti III bosqich talabasi

ANNOTATSIYA:

Hozirgi global olamda insoniyat hayotining ma'lum qismini egallab borayotgan shun'iy intellekt (AI)ga ega texnologiyalarni huquqiy tartibga solish muammosi va bunga turlicha yondashuvlar haqidagi qarashlar, dunyo olimlarining fikr-mulohazalar, takliflari maqolaning mazmunini tashkil qiladi.

KALIT SO‘Z VA IBORALAR:

Sun'iy intellekt (AI), raqamli texnologiyalar, yangi texnologiyalar davri, global svilizatsiya, I.V.Ponkin, A.I.Redkina.

Bugungi kunda sun'iy intellekt elementlariga ega raqamli texnologiyalar atrofdagi dunyoni o‘zgartirib, iqtisodiyot, mehnat bozori va boshqa sohalarga bosqichma-bosqich integratsiyalashib, shu orqali har bir inson hayotiga ta’sir ko‘rsatib bormoqda. Sun'iy intellektga ega raqamli texnologiyalarni faqat texnik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqishning o‘zi yetarli emas. Bunday texnologiyalardan foydalanish davlat tomonidan butun jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ularni boshqarishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, faoliyatning barcha sohalariga ta’sir qiluvchi sun'iy intellektga ega texnologiyalarni yaratish, joriy etish, ulardan foydalanish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan munosabatlar, shubhasiz, huquqiy tartibga solishni talab qiladi.

Yangi texnologiyalar davri — agar uning rivojlanishi sezgirlik va mas’uliyat bilan yo‘naltirilsa, yangi madaniy tiklanishning yoki madaniy taraqqiyotning boshlanishi bo‘ladi. Bu insoniyatga o‘zini yagona bir butunning bir qismi sifatida his qilish imkonini beradi. Demak, bu chinakam global sivilizatsiya paydo bo‘ldi degani.

Raqamli texnologiyalardan faol foydalanish olimlar, huquqshunoslar va amaliyotchilarining alohida e’tiborini ularni huquqiy tartibga solish masalalariga qaratishga xizmat qildi. Bugun dunyo hamjamiyatida bu yo‘nalishda izlanishlar olib borgan yoki o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan olimlarni uchratish mumkin. Xususan, rus olimlari I.V.Ponkina, A.I.Redkina, M.A.Rojkova, I.A.Filipova va boshqalar sun'iy intellektga ega bo‘lgan texnologiyalarni huquqiy tartibga solish muammolariga bag‘ishlab qator ishlarni ommaga havola qilganlar. Quyida ayni shu nomlari keltirilgan olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanib muhokama olib boriladi.

I.V.Ponkin va A.I.Redkinaning ta'kidlashicha, hali Hamon tadqiqotchilar AI, ya'ni sun'iy intellekt qanday huquqiy tartibga solish bo'lishi kerakligi haqida hali bir fikrga kelishmagan:

1) oldindan ko'rildigan universal-total yoki 2) yaratilayotgan o'ziga xos sun'iy intellekt tizimlarini tartibga solishga qaratilgan, ayniqsa, bu sohaning doimiy ravishda rivojlanib borayotganligi va bu rivojlanish bir muncha vaqt o'tgach nimaga olib kelishini aniq bilib bo'lmaydi¹.

Yana bir necha advokatlar jamoasi sun'iy intellekt bo'yicha maxsus qoidalarni yaratishga vaqt ajratishga intilishmoqda. Biroq bu huquqiy noaniqlik investitsiyalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi va muvozanatli tartibga solish innovatsiyalarga yordam berishi mumkinligini ta'kidlagan ba'zi iqtisodchilarning noroziligiga ham sabab bo'ldi².

Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish huquqning turli sohalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin: konstitutsiyaviy, jinoiy, mehnat, ijtimoiy himoya qonunlari va boshqalar.

Masalan, mehnat qonunchiligi nuqtai nazaridan texnologiyadan foydalanish bandlik darajasiga, mehnat sharoitlariga, bandlikka ta'sir qiladi, chunki ko'plab kasblar avtomatlashtirish xavfi ostida, nostandard mehnat sharoitlari uchun yangi me'yoriy talablar, xalq ta'limiga investitsiyalar zarur. Va proaktiv kadrlar siyosati ham bundan mstasno emas.

Ijtimoiy ta'minot qonunchiligi nuqtai nazaridan AI texnologiyasini joriy etish ijtimoiy xizmatlar sifati va sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi va ko'plab huquq sohalarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishni talab qiladi.

Shubhasiz, sun'iy intellektga ega texnologiyalarni huquqiy ta'minlash izchil rivojlantirilishi zarur. Dastlabki bosqichda har bir mamlakatda qonunchilikni sozlash va o'zgartirish uchun sun'iy intellektga ega texnologiyalarning huquqiy rejimini (holatini) aniqlashi mumkin bo'lgan amaldagi huquqiy normalarni baholash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishga yondashuvlar sezilarli darajada sun'iy intellekt deb tushunilishi kerak bo'lgan narsaga va u qanday qobiliyatlarga ega ekanligiga bog'liq bo'ladi. Bu bunday texnologiyalarni yaratishni standartlashtirish va sertifikatlash orqali sun'iy intellekt sohasida umumiy atamalar va ta'riflarni ishlab chiqishni talab qiladi, bu tizimlarning funksionallik va xavfsizlik sohasidagi belgilangan talablarga muvofiqligini ob'yektiv tasdiqlashni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

¹ Понкин, И. В. Искусственный интеллект с точки зрения права / И. В. Понкин, А. И. Редькина // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – 2018. – Т. 22. – № 1. – С. 91–109.

² Филипова, И. А. Правовое регулирование искусственного интеллекта: регулирование в России, иностранные исследования и практика / И. А. Филипова // Государство и право. – 2018. – № 9. – С. 79–88.

1. Понкин, И. В. Искусственный интеллект с точки зрения права / И. В. Понкин, А. И. Редькина // Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. – 2018. – Т. 22. – № 1. – С. 91–109.
2. Филипова, И. А. Правовое регулирование искусственного интеллекта: регулирование в России, иностранные исследования и практика / И. А. Филипова // Государство и право. – 2018. – № 9. – С. 79–88.
3. Alimova Madinaxon Iskanqar qizi, Egamberdiev N.B, UZBEK WOMEN IN DEVELOPMENT OF SCIENCE. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 1 JANUARY 2023. 17-25-p.
4. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (<https://zienjournals.com>).
5. Sarvar Saidov Faxriddin o‘g‘li. MA’MURIY JAZO TURINING TARBIYAVIY ROLI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 3ISSUE 4, April 2023. (<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7809718>)196-197-198b.
6. Sarvar S.F. Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi. No1 sonli respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiya. 24-sentyabr 2022-yil.
7. Sarvar S.F. YOSHLARDA ZO‘RAVONLIK QILMASLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Volume 3ISSUE 4, April 2023. (<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7809710>) 193-194-195p-b.
8. Urazov Nurmuhammad; Saidov Sarvara Fakhreddinovich. DEMOCRATIC REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. YURISPRUDENSIYA. 3-jild, 4-son.2022.
9. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
10. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman
11. <https://cyberleninka.ru>
12. <http://scientists.uz>